

## XITOYDAGI ENG QADIMGI DAVLATLAR

Ismoiyev Ramazon  
Mamatov Azizbek  
Otamurodov Doniyorbek

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xitoy hududida paydo bo‘lgan eng qadimgi davlatlarning shakllanishi, ularning siyosiy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniy rivojlanishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, Xitoy sivilizatsiyasining ilk bosqichlari, jumladan, Shang va Chjou sulolalari davrida davlat boshqaruvi va jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi. Ushbu davr Xitoy tarixining poydevorini tashkil qilgan va keyingi sivilizatsiyalar rivojiga ta’sir ko‘rsatgan muhim bosqich sifatida o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Xitoy, qadimgi davlatlar, Shang sulolasi, Chjou sulolasi, davlat tuzilishi, tarix, madaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi eramizdan avalgi V—III ming yilliklarda Xuanxe daryosining o‘rtal oqimida uzoq vaqt yopiq holda shakllanadi. Er. av. I ming yillik o‘rtalaridan boshlab Yanszi daryosi havzasini ham qamrab oladi. Xuanxe daryosi havzasi qadimda qalin o‘rmonlar bilan qoplangan. Eramizdan avalgi IV-II ming yilliklarda Xuanxening o‘rtal oqimlarida karkidon, tapir, bambuq !:alamushlari yashagan, bambuk daraxti o‘sgan. Vodiyning yumshoq allyuvial tuprog‘i dehqonchilik uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Er. av. IV—III ming yilliklarda Xuanxe havzasida Yanshao madaniyatini bu yerda yashagan poliosiyo aholisini siqib chiqargan protosinotibetliklar yaratadilar. Er. av. I ming yillikda Xuanxening o‘rtal oqimida inlar va chjouarning o‘zaro ta’siri natijasida qadimgi Xitoy etnosi vujudga keladi. Bu etnosning shakllanishida shimolda poliosiyo va avstroosiyo janubiy Osiyo tillarida so‘zlashuvchi etnoslar ishtirok etadilar.

Shan - In davlati davri. Xitoy xronologiyasiga ko‘ra bu davr odatda miloddan avvalgi XVIII - XII asrlarga to‘g‘ri keladi. Qadimgi Xitoy tarixiy an’anasiga ko‘ra, Shan qabila boshlig‘i Pan Gen miloddan avvalgi taxminan 1400 yillarda qabilani Anyanga olib kelib, Xuanxe daryosi bo‘yida “Katta Shan shahri” ni qudirib, davlati hukmdorlar sulolasini ham o‘z nomi bilan ataydi. Miloddan avvalgi II-124 yilda Vey daryosi havzasida yashagan Chjou qabilalari Shan shohligining so‘nggi poytaxtini vayron qilib, davlatni “In” deb nomlaganlar.

Yodgorliklarni o‘rganish tarix fani oldiga bir qancha yangi, jumladan, Xitoy madaniyatining kelib chiqish muammosini qo‘ydi. Yevropa va xatto Xitoy tarixshunoslari In davri aholisini g‘arbdan kelib, Xuanxe daryosining o‘rtal oqimida joylashgan istilochi qabilalar deb hisoblar edilar. Biroq bu fikr noto‘g‘ri. Neolit davri madaniyati In davri moddiy madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Neolit davriga xos uch oyoqli idishlarning o‘ziga xos shakli, katta shaharning paxsa devorlari, uy hayvonlari (ot), kaolindan yasalgan oq keramika, nihoyat suyak qur’alar Shan - In davrida ham mavjud bo‘lgan. Antropologiya ma’lumotlariga ham neolit davri bilan Shan davri odamlari o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

Shan - In davri madaniyatini Xitoyning azalii tub aholisi yaratib, ular qadim zamonlardan bo‘yon shu yerda yashab kelganlar va Shimoliy Xitoy xududida neolit davrinining madaniy yutuqlarini saqlab kelgan deb faraz qilish uchun barcha asos bor. Moddiy madaniyat yodgorliklari, san‘at asarlari, qadimgi yozuvlar, jumladan, qadimgi Xitoy klassik adabiyoti asarlarining suyak va bronza idishlariga bitilgan namunalar Shan - In davrining xo‘jalik, ijtimoiy va davlat tuzumini, garchi umumiy tarzda bo‘lsa ham, tasvirlab beradi. Afsuski, eng qadimgi Shan - In yozuv parchalari o‘sha davrdagi davlat tuzilishi to‘g‘risida faqat umumiy tarzda xulosa qilish imkonini beradi. Bu davrda Xitoya yer davlat qo‘lida markazlashib, hokimiyat ham shu asosda tashkil topgan. “Qo‘schiqlar kitobi” da barcha yerlar

shohga tegishli ekanligi aytildi. Davlat mamlakatning asosiy boyligiga va xo‘jalik asosi – yerga tayanib “markazlashgan ko‘rinish” ola borgan.

Ko‘pincha urushlar ochiqdan - ochiq talonchilik harakteriga ega bo‘lib, o‘ljaga ega bo‘lish, asirlar olish maqsadida boshlanib, asirlar keyinchalik qul qilingan. In sulolasi hukmdorligi davri o‘rtasi va oxirida ko‘chmanchilar yashab turgan tog‘li tumanlarni shuningdek, Vey va Fen vodiysi, ya’ni Shensi viloyatining markaziy qismini va Shansi viloyatining janubi-g‘arbiy qismini xitoyliklar egallab, mustamlaka qiladilar.

Qadimgi Xitoyning Vey xe daryosi havzasida joylashgan Chjou qabilalari qadimgi In shohligi ustidan bir necha bor g‘alaba qozanib, uning o‘rnida yangi davlatga asos soldi. Bu davlat qabila nomidan Chjou deb nom oldi. Chjou qabilalari haqidagi ilk ma’lumotlar U Din hukmronligi davridagi epigrafik yodgorliklarda keltiriladi. O‘scha vaqtida Chjou qabilalari In davlatining siyosiy ta’sirida bo‘lgan.

Manbalardan ma’lumki, Chjou qabilalari g‘arbiy tumanlarga kelib, G‘arbiy Chjou davlatiga asos soladilar. Ular miloddan avvalgi II minginchi yilning ikkinchi yarmida chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Chjou qabilalari shanlilar bilan goh yaxshi va goh yomon munosabatda bo‘lganlar. Chjou qabilalari shanlarga qarshi ittifoq tuzib, Mus (Xenan) da bo‘lgan mashhur jangda shanlar uyushmasiga qaqshatqich zarba berib, Xuanxe daryosining o‘rta va quyi havzalarida hukmronlik o‘rnatganlar. Ularning poytaxti Xao shahri bo‘lgan.

Chjou davlatini asosi bo‘lgan qabilalar neolit davridan boshlab Shimoliy Xitoyning Shensi viloyati Veyxe daryosi havzalarida yashaganlar. Yillar o‘tishi bilan Chjou qabilasi Veyxe daryosi havzasining boshqa qabilalari ustidan hukmronlik o‘rnatati yirik qabilalar ittifoqini tashkil qiladi. Manbalarda Chjou qabilasi In davlati bilan chegaradosh bo‘lganligi aytildi. “Chjou” so‘zi manbalarda ko‘p uchraydi. Ko‘zga ko‘ringan oilalar, hatto In davlati hukmdorlari qizlarini Chjou qabilasi sardorlariga uzatishgan. Chjou qabilalari Shan – In davlati madaniyati elementlarini qo‘llaganlar. Jumladan, Chjou qabilalari inlardan yozuv, xronologik tizim, me’morchilikka xos xususiyatlar va ba’zi diniy jihatlarni olganlar.

Qadimgi Xitoy adabiyotida saqlangan rivoyatlarga ko‘ra, Chjou shohi Ven Van (“Van” - shoh) juda katta harbiy yurishlar qilgan. Natijada Chjou davlati hududlari kengaygan. Ven Van In shohligini bosib olish rejasini ishlab chiqqan. Chjou hukmdorlaridan biri: “Biz shoh Ven Vanning ishini davom ettirishimiz kerak. Toki bizning davlatimiz jahon davlatiga aylanguniga qadar, dengiz burchaklaridan tortib kun chiqar o‘lka odamlarining barini bizning qonunlarimizga bo‘ysundirish uchun kurashishimiz kerak” degan edi.

In davlati o‘zaro ichki ziddiyatlar, kurashlar natijasida zaiflashib qoldi. Bundan foydalangan Chjou shohi U Van hukmdorlik davrining o‘n birinchi yilida katta qo‘shin bilan sharqqa tomon yurish qildi va In davlatini bosib oldi. Shunday qilib, miloddan avvalgi XII asrda Xitoy shimolida Chjou davlati vujudga keldi.

Chjou davlati davrida xo‘jalik asosini dehqonchilik tashkil qilgan. U ancha rivojlangan edi. Shimoliy Xitoyning hosildor yerlaridan dehqonlar katta hosil olishga erishganlar. Bu yerda qishki va bahorgi donlar ekilar, bog‘dorchilik, polizchilik, mevali daraxtlarni ko‘paytirish, hamda kanop yetishtirish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Qishloq xo‘jaligi bilan birga hunarmandchilik, jumladan, to‘qimachilik ancha rivojlangan. Bu vaqtida temirchilik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki hunarmandchilik sohasida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bergen edi. Ayniqsa temirdan dehqonchilik uchun zarur asbob - uskunalar yasash keng yo‘lga qo‘yiladi.

Chjou davlati davrida ijtimoiy tuzum haqida so‘zlasa, bu davrda patriarchal oila mavjud bo‘lganini aytib o‘tish kerak. Patriarxal oilada otaning roli cheksiz edi. Unga oila a’zolari so‘zsiz itoat qilgan. Otaning obro‘ - e’tibori davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlangan. Masalan, shoh Syuan farmonida aytilishicha: “Fuqarolar bevosita boshliqlarining qaroridan shikoyat qilishga haqli emaslar. Agar ularga shikoyat qilish huquqi berilsa, u holda o‘g‘il o‘z otasi bilan sudlashishi mumkin. Natijada katta bilan kichiklar o‘rtasida hech qanday farq qolmaydi.” Ayol o‘z uyini tashlab ketishi katta gunoh hisoblangan.

Chjou davrida qishloq jamoasi muhim o‘rin tutgan. Eng qadim quldarlik davlatida mamlakatdagi barcha yer fondlari, jumladan, jamoa ixtiyoridagi yerlar ham ilohiyashtirilib, shohga tegishli deb hisoblangan. Masalan, “gun - tyan” (jamoa dalasi) iborasi ayni vaqtda “dalasi” deb tushunilgan. Agar qadimgi Xitoy gunisi vanga (podsho) tegishli bo‘lsa, jamoaning barcha yeri davlat yer fondiga aylangan. “Shi - szin” qo‘shiqlar kitobida, Chjou hukmdori Lyu yurishga chiqishdan avval “dala va omborlardagi zahira donlarni yig‘ib katta qoplarga solgan”. Chjou davlatining hukmdorlari “odamlarni yerkarda biriktirganlar”. Boshqacha aytganda, ular katta miqyosdagi yerdarda o‘z xo‘jaliklarini tashkil qilgan. Hukmdorlar o‘z yaqinlari va zodagonlarga ko‘plab yerkarni taqsimlab bergan. Natijada Chjou davlatida yerga ega bo‘lgan tabaqalar - davlat mulozimlarini, zodagonlarni paydo bo‘lishiga olib kelgan. Xo‘jalikda qul mehnatidan foydalanilgan. In davrida yuzaga kelgan quldarlik Chjou davrida ancha kengaydi va rivojlandi.

### Foydalanaligan adabiyotlar:

1. Jahon tarixi (I-tom. 1- qism) darslik/ T/.” Navroz”,2018.-260.b.
2. .Jahon tarixi (Qadimgi sharq,Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi)/ o’quv qo’llanma.T.2018
- 3.Roger B.Beck, Linda Black, Larry S. Krieger, Philip C, Naylor, Dahia Ibo Shabaka “World history: patterns of interaction”. McDougle Little, USA, 2009.
- 4.Древние цивилизации, PDF M.I989.
5. Майоров Н.И. Введение в историю Древнего Востока. PDF. Учебное пособие.2003.
6. Афанасьева В.К. и др.Искусство Древнего Востока. М. Прогресс.1971.
- 7.Бикерман Э. Хронология Древнего мира.М.Изд-во Вост.литер-ры. М.I975.
8. Бобоев, Берхуз Баходир ўғли. ШАҲРИСАБЗНИНГ ТАРИХИЙ БОЗОРЛАРИ ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ. 1344-1351